OFTALMOLOGIYA TERMINOLOGIYASINING SHAKLLANISH MANBALARI VA UNING TIBBIY TERMINOLOGIYA TIZIMIDAGI O‘RNI

Ahmedova Aziza Mansurbek qizi
Qo‘qon universiteti Andijon filiali o‘qituvchisi
E-mail: Akhmedovaziza492@gmail.com
ORCID: https://orcid.org/0009-0003-1904-4062
Doi:https://doi.org/10.5281/zenodo.23276081

Annotatsiya. Ingliz va o‘zbek tillaridagi oftalmologiya terminologiyasining shakllanish manbalari oltita tarixiy-genetik qatlam asosida tasniflanadi: yunon-lotin qatlami, arab tibbiyoti orqali kirgan qatlam, zamonaviy xalqaro qatlam, rus tili vositasida o‘zlashgan qatlam, o‘zbek tilida kalkalangan va tavsifiy yo‘l bilan yaratilgan qatlam hamda zamonaviy xalqaro qatlam , rus tili vositasida o‘zlashgan qatlam hamda zamonaviy texnologiya va ko‘z mikrojarrohligi bilan bog‘liq yangi birliklar qatlami.Shuningdek, oftalmologiya terminosistemasining o‘rni aniqlanadi hamda uning yaqin sohalar bilan chegarasi belgilanadi. Olingan natijalar oftalmologik terminlarning struktur-derivatsion va semantic tasnifi uchun nazariy-metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: oftalmologiya terminologiyasi, terminosistema, genetik qatlam, yunon-lotin asos, o‘zlashma termin, kalka, tavsifiy termin, eponim, chog‘ishtirma terminshunoslik.

Kirish. Tibbiy terminologiya – ikki yarim ming yildan ortiq davr mobaynida shakllangan, bir necha til manbaidan oziqlangan ko‘p qatlamli tizim: yunon va lotin tillari ilmiy, avvalo tibbiy matnlar konvensiyalarini 2000 yildan ziyod vaqt davomida belgilab kelgan [3,130]. Oftalmologiya terminologiyasi esa ushbu tizimning eng dinamik va eng tez yangilanuvchi bo‘g‘inlaridan biridir: u bir tomondan qadimgi anatomic nomlanishlari saqlaydi, ikkinchi tomondan har o‘n yillikda yangi diagnostika va jarrohlik texnologiyalari hisobiga yangi birliklari bilan to‘ldiriladi. S.V.Shvetsovaning zamonaviy ingliz oftalmologiya terminosistemasiga bag‘ishlangan taqiqotida 11 833 ta termin tahlil qilingani ham shu sohaning leksik hajmi haqida tasavvur beradi [14].

O‘zbek tilshunosligida oftalmologiya terminologiyasi maxsus tadqiq etilmagan; uning shakllanish manbalari qatlamlar bo‘yicha tasniflanmagan, tadqiqot korpusining chegaralari esa aniq belgilanmagan. Holbuki terminologik tizimning genetic tarkibini aniqlamasdan turib, terminlarning struktur-derivatsion va semantic xususiyatlarini chog‘ishtirma tahlil qilish mumkin emas. Mazkur tezisning maqsadi – oftalmologik terminologiya shakllanish manbalarini qatlamlari bo‘yicha aniqlash hamda uning tibbiy terminologiya tizimidagi o‘rnini va yaqin sohalar bilan chegarasini belgilashdan iborat.

Qadimgi yunon va lotin asosli terminlar qatlami. Ushbu qatlam oftalmologiya terminologiyasining o‘zagini tashkil etadi. Tadqiqotlarga ko‘ra, ingliz tilidagi anatomik terminlarning 89 foizi lotin (65%) va yunon (24%) tilidan kelib chiqqan, umuman olganda esa terminlarning 95 foizigacha qismi lotin va lotinlashtirilgan yunon leksikasidan o‘zlashgan yoki asosda yasalgan [3, 134]. Tibbiy terminologiyasining ilk yozma manbalari Misr papiruslariga borib taqaladi, so‘ngra Gippokrat, Aristotel va Aleksandriya tibbiyot maktabi orqali yunon terminologiyasi shakllangan, keyinchalik rim olimlari tomonidan lotinlashtirilgan [10, 102].

Yunoncha asoslar oftalmologiyada eng mahsuldor termin yasovchi vosita bo‘lib qolmoqda: ophtalmos “ko‘z” – ophthalmology, ophthalmoscope, ophthalmoplegia, ophthalmitis; keras/keratos

© 2026 London International Monthly Conference on Multidisciplinary Research and Innovation. All Rights Reserved.

“shox” – keratitis, keratoconus, keratoplasty, keratometry; blepharon “qovoq” – blepharitis, blepharospasm, blepharoplasty; dakryon “ko‘z yoshi” – dacryocystitis, dacryoadentitis; glaukos “ko‘kimtir” – glaucoma; amblys “xira” – amblyopia. Lotin qatlami esa, asosan anatomic nomlanishlarda saqlangan : oculus, bulbus oculi, corpus vitreum, corpus ciliare, humow aquosus, mascula lutea, fovea centralis, musculus obliquus superios.

Anatomik nomenklaturaning lotin asosida qurilishi bugungi kunda ham normatic xarakterga ega: “hozirgacha yaratilgan archa anatomic nomenklaturalar lotin tilini asos qilib olgan” , 1998-yilgi Terminologia Anatomica esa lotin tilini “definitive terminologiya” tili sifatida rasman tasdiqlangan [8, 582].Aynan shu xususiyat oftalmologiya terminlarining tillararo chog‘ishtirishini ta’minlovchi umumiy asos vazifasini bajaradi.

Arab tibbiyoti orqali kirgan terminlar qatlami. O‘rta asrlarda Sharq tabobati oftalmologiyani mustaqil ixtisoslik darajasiga ko‘targan: Ibn al-Haysam ko‘rinishning ekstramissiya nazariyasini rad etgan, Ibn Rushd to‘r pardani ko‘rishning ekstramissiya nazariyasini rad etgan, Ibn Rushd to‘r pardani ko‘rish sezgisining markazi sifatida ta’riflagan, Ammor al-Mavsiliy esa kataraktani ichi bo‘sh igna yordamida so‘rib olish usulini qo‘llagan; shu davrda oftalmologiya imtihon va javobgarlik tizimiga gea tartibga solingan mutaxassislikka aylangan [1]. Muhimi shundaki, cornea, sclera, iris, choroidea, retina, conjunctiva kabi anatomik nomlanishlar Yevropa tibbiy tiliga aynan arabcha tarjimalar va arab mualliflarining asl asarlari orqali kirib brogan [1].

Arab tilining umumtibbiy leksikaga ta’siri alcohol, alkali, elixir kabi birliklarda ham saqlanib qolgan [3, 135]. O‘zbek tibbiy leksikasi uchun bu qatlamning alohida ahamiyati bor: Abu Ali ibn Sinoning “Tib qonunlari” asari va uning o‘zbekcha nashri ko‘z kasalliklari tavsifini o‘z ichiga olgan holda milliy tibbiy terminologiyaning tarixiy manbalaridan biri hisoblanadi [5].

Zamonaviy ingliz tiliga asoslangan xalqaro terminlar qatlami. XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab tibbiy til yunon-lotin qolipidan chiqa boshladi: “zamonaviy tibbiyot yunon-lotin terminlari doirasidan oshib ketdi va yangi tibbiy terminlar qisman yoki to‘liq oddiy ingliz tilidan olingan so‘zlardan tuzilmoqda” [3,133]. Oftalmologiyada bu jarayon dry eye syndrome, low vision, red eye, contact lens, visual acuity, screening, follow-up kabi birliklarda yaqqol ko‘rinadi.

Ushbu qatlamning ikki o‘ziga xos ko‘rinishi – eponimlar va abbreviaturalardir. S.V.Shvetsova tahlil qilgan korpusda eponimik terminlar butun tanlanmaning 33,2 foizini tashkil etgan (Bowman’s membrane, Descemet’s membrane, Schlemm’s canal, Muller cells kabi), qisqartmalar esa 4,3 foizni (513 birlik) qamrab olgan [14]. Oftalmologiyada eng faol qisqartmalar sifatida IOP (intraocular pressure), AMD (age-related macular degeneration), OCT (optical coherence tomography), IOL (intraocular lens), LASIK ni ko‘rsatish mumkin.

Rus tili vositasida o‘zbek tiliga kirgan terminlar qatlami. O‘zbek tibbiy terminologiyasining zamonaviy qatlami, asosan, rus tili vositachiligida shakllangan. R.Abdullayeva ta’kidlashicha, tarjima amaliyotida transkripsiya (so‘zning fonetik taqlidi) va transliteratsiya (harfiy taqlid) yetakchi usullar sanaladi, lotincha muqobillar esa o‘zbek tiliga aynan rus tili orqali qabul qilinadi; bunga o‘zbek tilida rod (jins) kategoriyasining yo‘qligi kabi tipologik omillar ham ta’sir ko‘rsatadi [13, 351-352]. N.B.Xalimova va M. Azizovalarning kuzatishicha, ruscha tibbiy terminlar hozirgi o‘zbek klinik amaliyotida mutaxassislararo aniq muloqotni ta’minlovchi vosita sifatida faol qo‘llanmoqda [11, 112].

Bu qatlamning diagnostic belgisi – terminning ingliz emas, balki rus tiliga xos fonetik-morfologik qiyofada o‘zlashishdir: conjunctivitis – konyuktivitis, cataract – katarakta, glaucoma – glaucoma, refraction – refraksiya, accommodation – akkomodatsiya, ophthalmoscopy – oftalmoskopiya, biomicroscopy – biomikroskopiya. Ko‘rinib turibdiki, -itis – it, - tion – siya, -y/-ia – iya moslashuv

© 2026 London International Monthly Conference on Multidisciplinary Research and Innovation. All Rights Reserved.

modellari rus tili orqali o‘tgan. Lug‘atchilik amaliyotida ham ruscha termin va uning o‘zbekcha muqobillari yonma-yon beriladi, ko‘p ma’noli holatlarda variantlar vergul bilan ajratiladi [2, 104].

O‘zbek tilida kalkalangan va tavsifiy yo‘l bilan yaratilgan terminlar qatlami. O‘zlashtirilgan muqobil ravishda o‘zbek tibbiy leksikasida kalkalash va tavsifiy nomlanish usullari ishlab chiqilgan. R.Abdullayeva keltirib o‘tgan suv bilan davolash (водолечение) misoli tavsifiy tarjimaning tipik namunasi bo‘la oladi [13, 351]. “Tibbiy atamalar lug‘ati”da ham bu yo‘l izchil qo‘llangan, misol uchun, Абдоминальная полость – qorin bo‘shlig‘i, Абазия – yurolmaslik (ixtiyoriy harakatlarning moslashuvining buzilishi) [9, 7]. Ayniqsa, Oftalmologiyada bu qatlam mahsuldor va tizimli: retina - to‘r parda, cornea - shox parda, iris - rangdor parda, sclera - oqsil parda, choroidea - tomirli parda, ya’ni “sifatlovchi + parda” yagona kalka modeli amal qiladi. Bundan tashqari: lens - ko‘z gavhari, bulbus oculi - ko‘z soqqasi, glandula lacrimalis - ko‘z yoshi bezi, visual acuity - ko‘rish o‘tkirligi, intraoculaar pressure - ko‘z ichki bosimi, night blindness - shabko‘rlik, colour vision deficiency - ranglar ajrata olmaslik. Bunday qatlamlanish o‘zbek terminologiyasi uchun umumiy qonuniyat bo‘lib, D.M.Xamidova iqtisodiy terminlar misolida turkiy, fors-tojik va o‘zlashma qatlamlarning yonma-yon amal qilishini ko‘rsatgan [12, 17-19], G.A.Kuchkarova esa terminologiyaning shakllanishini tarixiy-madaniy aloqalar bilan bevosita bog‘liqligini ta’kidlaydi [7, 165].

Zamonaviy texnologiya va ko‘z mikrajarrohligi bilan bog‘liq yangi birliklar qatlami. Oftalmologiya terminologiyasining eng yosh qatlami texnologik yangiliklar bilan birga yuzaga keladi. Ch.D. Kelmanning maqolasi kataraktani olib tashlashning yangi usulini bayon etgan va shu bilan phaco-emulsification and aspiration biligini ilmiy muomalaga kiritib o‘tgan [6]. Bundan tashqari, J.Fujimoto va E.Swansonlarning ishida esa optik kogerent tomografiya (OCT) texnologiyasining yaratilishi, tijoratlashtirilishi va oftalmologik amaliyotga ta’siri haqida yozib yorib o‘tgan [4]. Shuningdek ushbu qatlamga photoemulsification - fakoemulsifikatsiya,optical coherence tomography - optik kogerent tomografiya (OKT), intraocular lens - ko‘z ichi linzasi, vitrectomy- vitrektomiya, femtosecond laser - fentosekundli lazer, anti-VEGF therapy kabi birliklar kiradi. Ularning asosiy xususiyati, O‘zbek tiliga rus tili vositasisiz, bevosita ingliz tilidan, ko‘pincha abbreviatura shaklida kirib kelishi va shu sababli hali barqaror muqobiliga ega emasligi (OCT/OKT/ optik kogerent tomografiya kabi variantlilik). Aynan shu holat qatlamini normalashtirish uchun eng dolzarb obyektga aylantiradi.

Oftalmologiya terminologiyasining tibbiy terminologiya tizimidagi o‘rni. Tibbiy terminologiya bir xil tarkibga ega yagona tizim emas. E. Mareckova, F.Simon va L.Cervenylar uni uch quyi tizimga ajratadilar: anatomik nomenklatura, ya’ni lotin asosida qurilgan, eng barqaror bo‘lim, klinik terminologiya esa sezilarli darajada murakkabroq va taxminan 60 000 terminni o‘z ichiga oluvchi bo‘lim, hamda farmasevtik lotin - Yevropa farmakopeyasi va xalqaro patentlanmagan nomlar tizimi [8, 583]. Mualliflar shuningdek lotin-yunon terminologiyasining asosiy afzallik sifatida va ikkinchi tomodan tarix jihatidan ta’minlashini ko‘rsatadilar [8, 581]. Oftalmologiya terminologiyasi ushbu uch quyi tizimining kesishmasida joylashadi va ularning har birida o‘z vakilligiga ega. Aynan shu ko‘p qatlamli mavqe uni alohida terminosistema sifatida ajratib tadqiq etishni taqozo qiladi. Bundan tashqari, Terminosistermaning ichki tuzilishi haqida S.V.Shvetsovaning miqdoriy ma’lumotlari aniq tasavvur beradi: 11 833 ta ingliz oftalmologiya terminidan 75,8 foizi (8965 birlik) terminologik birikmalarga to‘g‘rii keladi. Ularning ichida ikki komponentlilar 56,4%, ya’ni 6680 birlik, uch komponentlilar 18,6% (2203 birlik), to‘rt komponentlilar, esa, atiga 0,6% (67 birlik), predlogli birikmalar 4,3% (512 birlik). Morfologik usulda suffiksatsiya orqali terminlarning 20,9 foizi 2484 birlikni o‘z ichiga oladi, prefiksal-suffiksal usulda 5,1% -604 birlik yasalgan; semantik usul eng mahsuldor bo‘lib, metaforizatsiya usuli 1,7% (204 birlik)ni tashkil etadi [14].

© 2026 London International Monthly Conference on Multidisciplinary Research and Innovation. All Rights Reserved.

Demak, oftalmologiya terminosistemasi sintaktik yo‘l bilan, ya’ni ko‘p komponentli birikmalar hisobiga rivojlanuvchi tizimdir. Bu xulosa o‘zbek tilidagi muqobillar uchun ham amal qiladi: age-related macular degenaration - yoshga bog‘liq makula degeneratsiyasi, primary open-angle glaucoma - birlamchi ochiq burchakli glaukoma, retinal detachment - to‘r parda ajralishi. Shu sabali ikkinchi bosqich tadqiqot markazida aynan ko‘p komponentli terminlarning struktur modellari turishi lozim. Korpusni tartibsiz kengaytirmaslik maqsadida oftalmologiya terminologiyasining yaqin sohalar bilan chegarasi quyidagicha belgilanadi: optometriya , klinik optika, ko‘z mikrajarrohligi, nevrooftalmologiya, bolalar oftalmologiyasi, onkooftalmologiya, oftalmogenetika, ko‘rishni reabilitatsiya qilish va kontrakt korreksiya sohalariga oid birliklar korpusga faqat ko‘rish a’zosi bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan taqdirdagina kiritiladi.

Xulosa, Oftalmologiya terminologiyasi oltita genetik qatlamining qo‘shilishidan tashkil topgan: yunon-lotin, arab, zamonaviy xalqaro (ingliz), rus tili vositasidagi, o‘zbekcha kalka-tavsifiy va texnologik qatlam. Har bir qatlam o‘z diagnostik belgisiga ega, bu esa terminlarini genetik jihatidan ishonchli tasniflash imkonini beradi.Ingliz va o‘zbek tillaridagi qatlamlanish assimetrikdir: ingliz tilida yunon-lotin asos bevosita amal qilsa, o‘zbek tiliga xuddi shu asos, asosan, rus tili vositachiligida, o‘zgargan fonetik-morfologik qiyofada kirib kelgan Aynan shu assimetriya chog‘ishtirma tahlilning asosiy obyekti hisoblanadi. O‘zbek tilidagi kalka qatlami tasodifiy emas, balki tizimli:”sifatlovchi + parda” kabi barqaror modellar amal qiladi, bu esa milliy terminologiyani me’yorlashtirishda tayanch nuqta bo‘lib xizmat qiladi. Bundan tashqari, oftalmologiya terminologiyasi tibbiy terminologiyaning anatomik, klinik va farmasevtik quiy tizimlarining kesihsmasida jaylashgan; uning rivojlanishida sintaktik usul (ko‘p komponentli terminologik birikmalar) yetakchilik qiladi. Eng muvofiq va me’yorlashtirishga eng muhtoj bo‘g‘in - texnologik qatlam: uning birliklari o‘zbek tilida hali variantlilik holatida bo‘lib, keyingi tadqiqotlarning birinchi darajali vazifasini tashkil etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ahmad, Umar, John Delieu, and Sami A. Al-Ani. “Lighting the Torch of Knowledge in the Darkness of the Middle Ages: The Arab-Islamic Influence on Ophthalmology.” Journal of the British Islamic Medical Association, vol. 17, 2024. https://jbima.com
2. Asatullayeva, Dilrabo G‘ulomovna. “Lug‘atlar shakllanishi va ularning mazmun-sifatini aniqlash (terminologiya misolida).” Tadqiqotlar. Jahon ilmiy-metodik jurnali, 40-son, 1-to‘plam, 2024, 104–108-betlar. ISSN 3030-3613.
3. Džuganová, Božena. “Medical Language – A Unique Linguistic Phenomenon.” JAHR, vol. 10/1, no. 19, 2019, pp. 129–145. https://hrcak.srce.hr/file/325950
4. Fujimoto, James, and Eric Swanson. “The Development, Commercialization, and Impact of Optical Coherence Tomography.” Investigative Ophthalmology & Visual Science, vol. 57, no. 9, 2016, pp. OCT1–OCT13. doi:10.1167/iovs.16-19963.
5. Ibn Sino, Abu Ali. Tib qonunlari. 3-kitob. Toshkent: Sharq, 2020. 736 b. ISBN 978-9943-5990-6-2.
6. Kelman, Charles D. “Phaco-Emulsification and Aspiration: A New Technique of Cataract Removal. A Preliminary Report.” American Journal of Ophthalmology, vol. 64, no. 1, 1967, pp. 23–35.
7. Kuchkarova, Gavxar Abdullayevna. “Ingliz va o‘zbek tillarida xalqaro turizm atamalarining shakllanishi va rivojlanishi.” Qo‘qon universiteti xabarnomasi, 15-jild, 43-son, 2025, 164–167-betlar. ISSN 2181-1695.

© 2026 London International Monthly Conference on Multidisciplinary Research and Innovation. All Rights Reserved.

8. Marečková, Elena, František Šimon, and Ladislav Červený. “Latin as the Language of Medical Terminology: Some Remarks on Its Role and Prospects.” Swiss Medical Weekly, vol. 132, 2002, pp. 581–587.
9. Usmonxo‘jayev, A., O‘. Abilov, va M. Turaxonova. Tibbiy atamalar lug‘ati. A. Q. Shadmanov tahriri ostida. Toshkent: Donishmand ziyosi, 2022. 400 b.
10. Vit, Yuliya. “The Origins of Medical Terminology.” Scientific Journal of Polonia University, vol. 55, no. 6, 2022, pp. 102–108.
11. Xalimova, Nodira Baxronkulovna, va Mehrangiz Azizova. “The Use of Russian Medical Terms in Medicine and Their Linguopragmatic Significance.” Partner Conferences of the International Scientific Journal Research Focus, vol. 4, special issue 1, 2025, pp. 112–114.
12. Xamidova, Durdona Muxtorovna. “O‘zbek tili iqtisodiy terminlarining tarixiy-etimologik xususiyatlari.” Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences, vol. 4, no. 5, 2024, 11–20-betlar.
13. Абдуллаева, Розанна. “Трудности перевода медицинских терминов с русского на узбекский язык.” Форум переводоведов – 2022, т. 2, спец. вып. 28, 2022, с. 347–353. ISSN 2181-1784.
14. Швецова, Светлана Викторовна. Лингвистический анализ способов терминообразования в современной английской офтальмологической терминосистеме: дис. … канд. филол. наук: 10.02.04. Иркутск, 2005. 180 с

© 2026 London International Monthly Conference on Multidisciplinary Research and Innovation. All Rights Reserved.